

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 58 582,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 7,2 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 109,9 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,5 % ga yetdi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Namangan viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	49 734,6	58 582,9	107,2
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	48 971,6	57 591,0	107,2
mahsulotlarga sof soliqlar	763,0	991,9	108,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	48 971,6	57 591,0	107,2
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	14 064,8	15 640,7	102,6
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	11 963,5	14 578,9	111,0
sanoat	8 220,4	9 934,0	109,0
qurilish	3 743,1	4 644,9	115,5
xizmatlar	22 943,3	27 371,4	108,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9 002,6	10 944,4	109,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 656,5	3 460,3	116,8
boshqa xizmat tarmoqlari	11 284,2	12 966,7	104,9

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 18 571,9 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 5,0 % ga yuqoridir.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,5	98,3
mahsulotlarga sof soliqlar	1,5	1,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	28,7	27,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	24,4	25,3
sanoat	16,8	17,2
qurilish	7,6	8,1
xizmatlar	46,9	47,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	18,4	19,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,4	6,0
boshqa xizmat tarmoqlari	23,1	22,5



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 27,2 % ni, sanoat tarmog'i 17,2 % ni, qurilish 8,1 % ni va xizmatlar sohasi 47,5 % ni tashkil qildi.

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



28,7 %

Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi

1,5 %

16,8 %

Sanoat


7,6 %

Qurilish

46,9 %

Xizmatlar

2025- yil



Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi

27,2 %

Sanoat

17,2 %

Qurilish

8,1 %

Xizmatlar

47,5 %

1,7 %


● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,7 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 1,1 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,5 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 1,2 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,2 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 0,8 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,7 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 4,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 102,6 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 27,2 %), sanoatda – 109,0 % (17,2 %), qurilishda – 115,5 % (8,1 %), xizmatlar sohasida – 108,0 % ni (47,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,1 % (19,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 116,8 % (6,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,9 % dan (22,5 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 109,9 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 110,9 % va xizmatlar sohasida – 110,5 % qayd etildi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 41 918,0 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-sentabr oylarida – 35 963,5 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 72,8 % ni (2024-yilning yanvar-sentabr oylarida – 73,4 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2024- yil

35 963,5

73,4 %

2025- yil

41 918,0

72,8 %

